

## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 08 | pp. 334-343 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING USTIVOR YO‘NALISHLARI



**Yulduz Yaqubova Raimovna**

Mamun universiteti “Iqtisodiyot”  
kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning muammolari, unga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilingan. Mintaqani barqaror rivojlantirishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishgan. Mintaqani barqaror rivojlantirish maqsadlarini ta’minlash uchun suv, energiya va transport infratuzilmalarini rivojlantirish va ularni samarali boshqarish bo‘yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** mintaqaviy tizim, energetika infratuzilmalari, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi.

#### KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 29 noyabrdagi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi yakunlari bo‘yicha brifingdagi bayonotida mintaqaning mavjud ulkan iqtisodiy salohiyatidan foydalangan holda, ustuvor sohalarida muloqot va sheriklikni rivojlantirishga kelishib olinganligini ta’kidlab, jumladan, quyidagi yechimini kutayotgan vazifalarga to‘xtalib o‘tdi: “Biz davlatlarimiz o‘rtasidagi savdo to‘siqlarini bartaraf etish, sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish uchun barcha sa’y-harakatlarni amalga oshiramiz. Energetika infratuzilmalarini modernizatsiya qilish va mintaqaning tranzit imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yirik loyihalarni ro‘yobga chiqarish niyatidamiz. Iqtisodiy va transport koridorlarining samarali mintaqaviy tizimini yaratish borasida faol hamkorligimiz bundan keyin ham davom etadi. Suv resurslaridan birgalikda foydalanish, iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarini yumshatish, ekologik xatarlarga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha ham batafsil fikr almashdik”<sup>1</sup>

Shu bilan bir qatorda, innovasion texnologiyalarni jalb qilish, “yashil iqtisodiyot” prinsiplarini joriy etish, cho‘llanishning oldini olish orqali Orolbo‘yi muammolarini yechish, shuningdek, ilm-fan, ta’lim, turizm, madaniyat va sport sohalarida qo‘shma tadbirlarni muntazam o‘tkazib borish, Markaziy Osiyo xalqlarini birlashtirib turadigan umumiy qadriyat va an’analarni asrabavaylash, keng targ‘ib qilish bo‘yicha qo‘shma

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 29 noyabrdagi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi yakunlari bo‘yicha brifingdagi bayonoti. <https://president.uz/uz/lists/view/3111>

dasturlarni amalga oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirib borishga kelishib olindi.

Bu hujjatlarda har tomonlama chuqur tayyorlangan, har bir hududdagi ijtimoiy muammolarni yechishga, aholining og'irini yengil qilishga qaratilgan aniq vazifalar o'z ifodasini topmayapti. Shu bilan birga, ushbu qarorlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish ishlari ham sust olib borilmoqda<sup>2</sup>, deb ta'kidladi. Bularning hammasi mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillarini tadqiq etish masalasining dolzarbligini belgilaydi.

Barqaror rivojlanish mintaqaviy tizimining ayni vaqtda amal qilish va yangi sifatlarga ega bo'lish uzunligi va uzluksizligiga xavf soladigan, turli zararli omillarni bartaraf qilish va yuqori darajada cheklashga qaratilgan har xil turdagi murakkab, moslashuvchan ta'sirlar butun majmuini qo'llagan holda o'z tarkibi va xossalarining nisbatan o'zgaruvchan rivojlanishini bildiradi.

2019-yil 16-aprelda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va Senat tomonidan 2019-yil 3-mayda ma'qullangan «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida (2019-yil 21 may, O'RQ-539-son) unga quyidagicha ta'rif beriladi: Qayta tiklanuvchi energiya manbasi bu-atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasidir.

#### ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish mintaqaviy tizimining ayni vaqtda amal qilish va yangi sifatlarga ega bo'lish uzunligi va uzluksizligiga xavf soladigan, turli zararli omillarni bartaraf qilish va yuqori darajada cheklashga qaratilgan har xil turdagi murakkab, moslashuvchan ta'sirlar butun majmuini qo'llagan holda o'z tarkibi va xossalarining nisbatan o'zgaruvchan rivojlanishini bildiradi.

IHTT (OECD) tavsiyalariga ko'ra, barqaror rivojlanishning miqdor va sifat o'zgarishlari, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, boshqa tarmoqlar, iqtisodiy faoliyat soha va yo'nalishlari, aholi turmush sifatining dinamik rivojlanishi nuqtai nazaridan o'rganiladi<sup>3</sup>. Umuman, mintaqaning barqaror rivojlanishi darajasi qator tabiiy ekologik, siyosiy, jamoaviy, iqtisodiy va ijtimoiy tavsifdagi omillar guruhi o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Barqaror rivojlanishning tabiiy-ekologik jihati tabiiy resurslarni (er, o'rmon, suv, tuproq unumdorligi, hayvonot olami) tejamkorlik tamoyillari asosida takror ishlab chiqarishni ta'minlash, shu jumladan, kishilarning kelajak avlodi uchun ratsional foydalanishni ko'zda tutadi. Barqarorlikka bunday yondashuv ulardan foydalanishning yuqori darajada qisqarishi, o'rinbosarlarini izlash, resurs-tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilishni bildiradi. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillari boshqa guruhlarining o'zaro ta'siri berilgan mezonlarga muvofiq, mintaqaning bir butun va muvozanatli holatini ko'zda tutadi: moddiy, mehnat va moliyaviy ko'rsatkichlar muvozanatdaligi, davlat, aholi va hamkorlar oldidagi majburiyatlarning bajarilishi, tashqi

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 21 iyunidagi Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. - <https://president.uz/uz/lists/view/26923>

<sup>3</sup> Towards Sustainable Development: Indicators to Measure Progress. Rome Conference. OECD, 1998. P. 139.

muhit o'zgarishlarini hisobga olib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni va umr uzunligini ta'minlash layoqati va h.k.<sup>4</sup>

Barqaror rivojlanish omillarining o'zaro ta'siriga bunday yondashuv tizimli-konstruktiv tavsifga ega hamda ob'ektga nafaqat tashqi muammolar va ichki xatarlarga qarshi turishni ta'minlash imkonini beradigan boshqaruv va muvofiqlashtirish usullariga qaratilgan, balki chuqur o'zgarishlarga, o'zgarib borayotgan ichki va tashki sharoitlarga tezkor moslashuvchanlik va egiluvchanlik layoqati hamdir. Bundan barcha funktsional sohalar va salohiyatni tartibga solishning kompleks usullariga asoslangan mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni barqaror rivojlantirish omillarini boshqarishning muqarrar zaruriyati, mintaqaning strategik istiqbolda amal qilinishi zarur ko'rsatkichlarini ta'minlash uchun yetarli ta'sirlar va islohotlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganlik kelib chiqadi. Bu masalada ham barqaror rivojlanish jarayonlarini boshqarishning asosiy vazifasi barcha xatarlar va yo'qotishlarni eng kam darajaga keltirishdangina emas, balki tashqi muhit qonuniyatlari va jarayonlariga muvofiq, rivojlanish omillaridan foydalanish va kelajakni ko'ra bilishdan ham iboratdir. Shu bilan bog'liq ravishda, boshqaruv sub'ektining ob'ektga ta'siri sifatida chiqadigan mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni barqaror rivojlantirish mexanizmi ikkita asosiy vazifaning hal qilinishini ta'minlashi zarur:

1) joriy faoliyatning zaruriy barqarorligi va muvozanatini;

2) istiqbolda rivojlanishning zaruriy sur'atlariga erishish va o'zgarishlarning o'z vaqtidaligini.

Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish darajasi mintaqaning xo'jalik faoliyatiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan, uning raqobatbardoshligini belgilaydigan ichki va tashqi muhit omillarini birlashtirish natijasini o'zida mujassamlashtiradi.<sup>5</sup>

Tashqi omillar qatorida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, texnologik va mintaqa amal qilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tashqi ta'sirlar kuchlarini qayd etish lozim. Bunday omillar guruhini tashqi muhit omillariga kiritish, maqsadga muvofiq. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar ichki omillari orasida tabiiy-resurs, ijtimoiy-siyosiy, institutsional, tashkiliy-boshqaruv, bozor, ilmiy-texnika taraqqiyoti kabilarni o'rganish zarur. Bizning fikrimizcha, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish ichki omillariining butun majmuini quyidagi guruhlarga kiritish mumkin:

- mintaqa salohiyatini belgilaydigan resurslar;

- mintaqaning rivojlanish jarayoniga boshqaruvchilik ta'sirini ko'rsatish imkoniyatini belgilaydigan regulyatsion guruhlar. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarining barqaror rivojlantirish holatini belgilaydigan asosiy omillar majmuining umumlashgan funktsional aloqasini ( $S_{br}$ ) quyidagi empirik bog'liqlik ko'rinishida tasvirlash mumkin:

$$S_{br} = f(F_{tm}, F_{im}, F_{is}, F_{ia}, F_r, F_s, F_x, F_{nt}),$$

Bunda,

$F_{tm}$  – tashqi muhit omillari;

$F_{im}$  – ichki muhit omillari;

<sup>4</sup> Рыбнов Е. И. Управление изменениями в организации для сохранения ее экономической устойчивости / Е. И. Рыбнов, М. А. Асаул // Вестник гражданских инженеров. - 2007. - № 4 (13). - С 24.

<sup>5</sup> Портер М. Международная конкуренция. — М.: "Международные отношения", 1999. — 572 с.

Fis – mintaqa iqtisodiy salohiyati omillari;

Fia – ijtimoiy ahvol omillari;

Fr – rivojlanish imkoniyati omillari;

Fs – samaradorlik omillari;

Fx – xatar omillari;

Fnt – noaniq tavsifdagi omillar.

Tahlilda mintaqa barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday omillarga noaniq tavsifdagi omillar va xatar omillarini kiritish mumkin. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishiga bunday omillar ta'sirining xususiyatlari quyidagilardan iborat: Birinchidan, salbiy omillar odatda keng tavsifga ega va tashkil qilish maqbulligini hamda yuzaga kelgan tartibotlarni buzgan holda mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizim unsurlari va aloqalarining katta qismini vujudga keltiradi.<sup>6</sup>

Ikkinchidan, mintaqa barqaror holatining buzilishi salbiy omillarni bartaraf qilishga resurslarni jalb qilgan holda iqtisodiy salohiyat tarkibini keskin yomonlashtiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (ko'rsatkichlarning o'sishi) sur'atlari barqarorlik mexanizmi unsurlarining katta nomuvozanatiga olib kelish orqali pasayadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning uslubiy asosini dialektikaning asosiy qoidalari va tamoyillari tashkil etdi. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'rganishda mintaqa iqtisodiyotidagi hodisa va jarayonlarni miqdoriy o'rganish, ya'ni, iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish uslubiga tayanildi. Ma'lumotlardan xulosa chiqarishda mantiqiy tahlil, sintez, umumlashtirish, induktsiyava deduktsiya, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.


**Taxlil va natijalar.** Qayta tiklanuvchi energiya manbalari — atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16-fevraldagi "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori bilan "2023 yilda davlat-xususiy sheriklik asosida yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari" hamda 2023 yilda davlat-xususiy sheriklik asosida yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini elektr uzatish tarmoqlariga ulash bo'yicha loyihalari, "Ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish rejasi" tasdiqlangan. Belgilab berilgan vazifalarga ko'ra, ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida o'rnatiladigan qurilmalar bo'yicha 2023 yilda jami 211,1 mln kVt.s qo'shimcha energiya olish rejalari tasdiqlangan. Shuningdek, tadbirkorlarning bino va inshootlarida o'rnatiladigan quyosh panellari hamda kichik FESlarni barpo etish bo'yicha jami 11019 ta obyektga 742,7 MVt quvvatli quyosh panellarini o'rnatish, mahalliy tadbirkorlar barpo etadigan kichik FESlardan esa 555,4 MVt energiya olish rejalari tasdiqlangan. Bunday islohotlar natijalari mamlakatda energiya samaradorligini oshirish va "yashil energiya"ga o'tish jarayonlarini yanada tezlashtirish imkoniyatini ta'minlaydi.

<sup>6</sup> Sayles, Michael C. Instructions on Where to Stand When It Hits the Fan // Managers Magazine, Apr 1990, p. 16-18.

Yuqoridagilar bilan birga ustuvor yo‘nalishlar sifatida eng katta energiya iste‘mol qiladigan sanoat sohasida ham QTEdan foydalanishga qaratilgan islohotlar olib borish va uni ilmiy asoslarini ishlab chiqish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Sanoat O‘zbekiston uchun eng muhim iqtisodiy tarmoq sifatida uning YAIMdagi hissasi 2022-yilda 26,8 foizni tashkil etib, 2017-2021-yillarda umumiy o‘shish 41,3 foizni tashkil qilgan. O‘zbekistonda sanoatning qariyb 80 foizidan yuqori qismini ishlab chiqarish sanoati tashkil etib, bu yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga, xomashyoni chuqur qayta ishlash hisobiga mamlakat eksport salohiyati va xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tarmoqlarni rivojlantirish kompleks dasturlarini samarali ishlayotganligidan dalolat beradi.

«O‘zbekgidroenergo» aksiyadorlik jamiyati Matbuot xizmati taqdim etgan ma‘lumotlarga qaraganda, mustaqillikning dastlabki yillarida gidroenergetikaning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi 10 foizga ham yetmagan. O‘zbekiston gidroelektr inshootlari tomonidan o‘tgan davr mobaynida, aniqrog‘i 2020-yilda 7 mlrd 947 mln. kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 6 mlrd 126 mln. kVt/soatni tashkil etgan. 2023-yilda esa ishlab chiqarilgan 6 mlrd 513 mln. kVt/soat elektr energiyasi umumtizim orqali iste‘molchilarga yetkazib berilgan (1-rasm). Ushbu ko‘rsatkich mamlakatimizda ishlab chiqariladigan jami elektr energiyasining 13 foizini tashkil etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonning tabiiy suv resurslaridan samarali foydalanilib, aholini qayta tiklanadigan, ekologik toza va arzon elektr energiyasi yetkazib ta‘minlanayotganini anglatadi.



**1-rasm. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali hamda O‘zbekgidroenergo” AJ orqali ishlab chiqarilgan elektr energiya ko‘rsatkichlari taxlili.(2021-2023-yillar).<sup>7</sup>**

«O‘zbekgidroenergo» AJ ma‘lumotlarini keltirayotganda yildan-yilga suv omborlaridagi suv sathining pasayib ketayotganiga alohida e‘tibor berishimiz zarur. Ekotizimga ko‘rsatilayotgan salbiy asoratlarni nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo davlatlarida kuzatilmoqda. Joriy yilda gidroenergetika imkoniyatlaridan keng


<sup>7</sup> info@stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

foydalanadigan qo'shni Tojikiston energetiklarining bu yilgi havzalardagi suv sathining avvalgi yillarga nisbatan keskin kamaygani haqidagi bayonotlari yuqoridagi fikrlarning tasdig'idir.

- 2020-yilda 52 142,1 mln. kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun mamlakatimizda mavjud issiqlik elektr stansiyalari tomonidan 15,21 mlrd metr/kub tabiiy gaz, 268,3 mln metr/kub yerosti gazi, 148,6 ming tonna mazut, 3,31 mln tonnadan ziyod ko'mir, 13,7 ming tonna neftkoksoy yoqilgan.

- 2021-yilda esa jami 56 311,3 mln. kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun bu ko'rsatkichlar umumiy hisobda 8,7 % ga oshgan, ya'ni 16,42 mlrd metr/kub tabiiy gaz, 326,6 mln metr/kub yerosti gazi, 154,8 ming tonna mazut, 3,34 mln tonna ko'mirdan issiqlik energiyasi olinib, elektr energiyasiga aylantirilgan.

- 2022-yilda esa o'tgan yillarga nisbatan yirik miqdorda import qilingan elektr energiyasi hajmidan tashqari 56 413,8 mln. kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Buning uchun 15,81 mlrd metr/kub tabiiy gaz, 269,2 mln metr/kub yerosti gazi, 204,4 ming tonna mazut va 3,57 mln. tonna ko'mir yoqilgan.(2-rasm)



**2-rasm. Tabiiy resurslar sarfi holati taxlili.(2021-2023-yillar).<sup>8</sup>**

Yuqorida keltirilgan raqamlar atmosferaga chiqarilgan behisob uglerod oksidi, minglab tonna kul va boshqa zararli moddalar haqida so'zlab turibdi.

2021-2023-yillarda «yashil energiya», «muqobil energiya» deb ta'riflanuvchi fotoelektrstansiyalari hamda shamol generatorlarini qurish bo'yicha turli manbalarda ma'lumotlar berila boshladi. Hukumat qarorlariga asosan Energetika vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari salmog'ini 2030-yilgacha 25–30 foizgacha oshirishi strategik rejasi ishlab chiqilgan.

**Infratuzilmani yaxshilash-suv, energiya va transport infratuzilmalarini zamonaviylashtirish va ularni samarali boshqarishdir.**

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-avgust kuni transport, energetika va sanoat sohalaridagi loyihalar majmuini tasdiqladilar.<sup>9</sup> Transport infratuzilmasi kengligi va qulayligi mamlakat rivojini ko'rsatuvchi, unga qo'shimcha impuls beruvchi muhim omil.

<sup>8</sup> [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz) O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>9</sup> [www.minenergy.uz](http://www.minenergy.uz) ochiq ma'lumotlar portali

Yurtimizda bu sohada ko'plab loyihalar amalga oshirilib, avtomobil, aviatsiya, temir yo'l, metropoliten kabi barcha tarmoqlarda yangi obyektlar ishga tushirildi.

Shunday loyihalardan yana biri – «Toshkent-Sharqiy» aeroportining yangilanishi. Davlatimiz rahbari o'tgan oyda uning qurilishini borib ko'rgan edi. Unda berilgan topshiriqlar asosida majmua bosh rejasi samaradorlik jihatidan takomillashtirildi. Xususan, aeroport hududi 130 gektarga qisqartiriladi. Buning evaziga uni saqlab turish xarajatlari ham kamayadi.

Hozirda 4 kilometr uzunlikdagi uchish-qo'nish yo'lagi qurib bo'lingan. Bu yerda 2 ta – yuqori martabali mehmonlar uchun hamda biznes-aviatsiya terminali bo'ladi. 25 ta samolyot uchun turargoh, angarlar, ma'muriyat va xizmat ko'rsatish binolari barpo etiladi. Aeroport noqulay ob-havo sharoitlarida ham uchish-qo'nishni ta'minlovchi ICAO III-A toifasidagi zamonaviy radiotexnika va meteorologiya uskunalari bilan jihozlanadi. Toshkent shahri rivojlangani sari aholi soni ham, ularning faolligi ham oshib bormoqda. Buni shaxsiy avtomobillar ko'payib borayotganida ham ko'rish mumkin. Lekin, shu bilan birga, shahar ko'chalarida tirbandlik ham ortmoqda.

Ma'lumki, bu muammoni hal etishning yo'li – jamoat transportini rivojlantirish, unda yurishni avtomobil haydashdan ko'ra qulay qilish. Shu maqsadda, Prezidentimiz ko'rsatmasiga muvofiq, Toshkent shahriga yangi avtobus va elektrobuslar olib kelindi. Yo'lovchi tashish quvvati oshib, jamoat transportining oraliq vaqti qisqardi.

Shaharda tirbandlikni kamaytirish uchun Toshkent metropolitenining oxirgi va serqatnov bekatlari yonida avtoturargohlar barpo etish rejalashtirilgan. Maqsad – odamlar shaxsiy avtomobilini shu yerda qoldirib, shahar ichkarisiga jamoat transportida borishiga sharoit yaratish.

Shuningdek, taqdimot davomida mamlakatimizda energetika quvvatlarini oshirish masalasiga e'tibor qaratildi. Jumladan, poytaxtimizda elektr energiyasi tarmoqlarining favqulodda holatlarga bardoshlilikini mustahkamlash hamda muqobil energiya manbalarini integratsiya qilish choralari ko'rilmogda.

Qayta tiklanuvchi energiya tarmog'ida jami quvvati 13 ming 777 megavattlik 33 ta loyiha ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, elektr energiyasi infratuzilmasini takomillashtirish va ob-havo sharoitlariga chidamliligini oshirish, zaxira quvvatlar hosil qilish, iste'molni aqlli boshqarish bo'yicha ish olib borilmogda.

Bugungi kunda Toshkent shahri iqtisodiyotining 34 foizdan ziyodi sanoat hissasiga to'g'ri keladi. O'tgan yili 110 trillion so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Ayniqsa, oziq-ovqat, metallurgiya, to'qimachilik tarmoqlarida o'sish yuqori bo'lgan. Bu sohadagi imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida "Yangihayot" industrial texnoparkini klaster tizimiga o'tkazish taklifi bildirildi. Uning maydoni 500 gektar bo'lishi, 810 ta korxonalar joylashtirilishi va 100 mingta ish o'rni yaratilishi mo'ljallangan. Klaster tizimi yo'lga qo'yilishi natijasida ishlab chiqarish sifati oshib, transport xarajatlari va tannarxni kamaytirishga erishiladi.

Infratuzilmani yaxshilash — bu mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhim omildir. Suv, energiya va transport infratuzilmasini zamonaviylashtirish va samarali boshqarish orqali turistik tajribani oshirish va mintaqaning umumiy rivojlanishini ta'minlash mumkin. Quyida bu sohalarda qanday ishlash kerakligi haqida batafsilroq ma'lumot berilgan (1-jadval).



## 1-jadval

Suv, energiya va transport infratuzilmasini samarali boshqarish va rivojlantirish bosqichlari.<sup>10</sup>

Suv infratuzilmasini yaxshilash bosqichlari	Energiya infratuzilmasini yaxshilash	Transport infratuzilmasini yaxshilash
- suv ta'minoti sanoat va mahalliy aholi uchun toza va ishonchli suv ta'minotini ta'minlash. Zamonaviy suv tozalash va taqsimlash tizimlarini joriy etish;	- energiya tejash uchun energiya samarador texnologiyalarni joriy etish, masalan, LED yoritish, energiya tejavchi qurilmalar va izolyatsiya qilish;	- yo'l tizimini yangilash yo'l va ko'priklarni ta'mirlash va zamonaviylashtirish. Transport harakatini yengillashtirish uchun yo'l belgilarini va ko'rsatkichlarini o'rnatish;
- suvni qayta ishlash suv resurslarini tejash uchun suvni qayta ishlash tizimlarini o'rnatish. Masalan, yomg'ir suvi yoki oqava suvlarni qayta ishlash va ularni irrigatsiya yoki sanitar ehtiyojlar uchun ishlatish;	- qayta tiklanuvchi energiya Quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish. Masalan, quyosh panellari o'rnatish yoki shamol turbinalarini qo'llash;	- transport tarmoqlarini rivojlantirish uchun transport tarmoqlarini kengaytirish va yangilash, masalan, avtobus va poezd yo'llarini yaxshilash, transportning qiziqarli variantlarini taqdim etish;
- suvni tejash suvni tejash uchun samarali usullar va texnologiyalarni qo'llash. Masalan, suvni tejash texnikalarini mehmonxona va restoranlarda amalga oshirish.	- energiya boshqarish energiya ta'minoti va iste'molini samarali boshqarish tizimlarini ishlab chiqish, shuningdek, energiya tejamkorlikni oshirish uchun monitoring va tahlil qilish.	- jamoat transportini takomillashtirish jamoat transport tizimlarini takomillashtirish, samara-likni oshirish va turistlar uchun qulay transport xizmatlarini yaratish;
		- Eko-Transport elektr mashinalar va velosipedlar uchun maxsus yo'laklar va stansiyalar o'rnatish kabilarni o'z ichiga oladi.

**Mintaqaviy iqtisodiyotda innovatsiya va texnologiyalarni joriy etish** orqali yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni faol tatbiq etish uchun avvalo, jahon tajribasi o'rganildi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, klasterlar dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Shunday qilib, AQSHda mintaqaviy innovatsion klasterlarni rivojlantirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kanadada innovatsion klasterlarni yaratish ham iqtisodiy o'sishning asosiy shartidir. Finlyandiya iqtisodiyoti klasterlikning yuqori darajasi

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi



bilan ajralib turadi. Bugungi kunga kelib, o'rmon xo'jaligi, axborot va telekommunikatsiya klasterlari Finlyandiya iqtisodiyoti uchun eng muhimi bo'lib, eksportning katta qismini ta'minlaydi va davlat yalpi ichki mahsulotining asosiy qismini yaratadi. O'zbekistonda davlat iqtisodiyoti va mintaqa innovatsion infratuzilmasini innovatsion shakllantirishning jahon tajribasidan foydalanish mumkin. Iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda ma'lum ijobiy isbotlangan yondashuvlardan foydalanish innovatsion infratuzilmaning hududiy rivojlanishini ta'minlaydi. Binobarin, hisobga olgan holda, mintaqaviy innovatsion rivojlanishning o'ziga xos konsepsiyasini yaratish, shuningdek, bu boradagi jiddiy rivojlanish zarur.

O'zbekistonda mintaqaviy innovatsion texnologik infratuzilmani takomillashtirish yo'nalishlari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

- ilmiy-texnikaviy, tadbirkorlik faoliyati va davlat hokimiyati organlarini birlashtirish;

- fan va ishlab chiqarish tashkilotlarining ilmiy-texnikaviy va innovatsion faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish;

- ilmiy-texnikaviy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga byudjetdan tashqari investitsiyalarni jalb etish;

- tashqi va ichki bozorda raqobatbardosh bo'lgan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish;

- mintaqalararo va xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish;

- hududiy ilmiy va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirish va ulardan hududni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida foydalanish;

- tashkilotlarning faol innovatsion faoliyatga o'tishi;

- mahalliy va hududiy hokimiyat organlari tomonidan ichki va tashqi bozorlarga chiqish uchun yuqori texnologiyalar sohasidagi ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash;

- intellektual faoliyat natijalarini institutsional-huquqiy asosda himoya qilish.

Mintaqaning innovatsion infratuzilmasining tahlil qilingan xalqaro tajribasidan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekistonda mintaqaviy innovatsion texnologik infratuzilmani takomillashtirish uchun yuqorida sanab o'tilgan 2-jadvaldagi bosqichlarni amalga oshirish bilan ta'minlash zarur:

#### **Xulosa va tavsiyalar.**

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari barqaror qishloq xo'jaligi, Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, Turizmni rivojlantirish-ekoturizm va madaniy turizmni rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash-suv, energiya va transport infratuzilmalarini zamonaviylashtirish va ularni samarali boshqarish, innovatsiya va texnologiyalarni joriy etish orqali yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni faol tatbiq etish, ishlab chiqarish va xizmatlarni yaxshilash ekanligi aniqlandi.

Innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, "yashil iqtisodiyot" prinsiplarini joriy etish, cho'llanishning oldini olish orqali Orolbo'yi muammolarini yechish, shuningdek, ilm-fan, ta'lim, turizm, madaniyat va sport sohalarida qo'shma tadbirlarni muntazam o'tkazib borish, Markaziy Osiyo xalqlarini birlashtirib turadigan umumiy qadriyat va an'analarni asrabavaylash, keng targ'ib qilish bo'yicha qo'shma dasturlarni amalga oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirib borishi o'rganildi.

2019-yilda esa o'tgan yillarga nisbatan yirik miqdorda import qilingan elektr energiyasi hajmidan tashqari 56 413,8 mln. kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Buning uchun 15,81 mlrd metr/kub tabiiy gaz, 269,2 mln metr/kub yerosti gazi, 204,4 ming tonna mazut va 3,57 mln. tonna ko'mir yoqilgan buraqamlar atmosferaga chiqarilgan behisob uglerod oksidi, minglab tonna kul va boshqa zararli moddalarning tasdig'i ekanligi aniqlandi.

Infratuzilmani yaxshilash orqali mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhim omildir. Suv, energiya va transport infratuzilmasini zamonaviylashtirish va samarali boshqarish orqali turistik tajribani oshirish va mintaqaning umumiy rivojlanishini ta'minlash mumkinligi haqida ma'lumot berildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 29 noyabrdagi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi yakunlari bo'yicha brifingdagi bayonoti. - <https://president.uz/uz/lists/view/3111>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 21 iyunidagi Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. - <https://president.uz/uz/lists/view/26923>
3. Towards Sustainable Development: Indicators to Measure Progress. Rome Conference. OECD, 19P. 139.
4. Рыбнов Е.И. Управление изменениями в организации для сохранения ее экономической устойчивости / Е.И.Рыбнов, М.А.Асаул // Вестник гражданских инженеров. - 20- № 4 (13). – С 24.
5. Портер М. Международная конкуренция. — М.: Международные отношения. – 19– 572 с.
6. Sayles, Michael C. Instructions on Where to Stand When It Hits the Fan // Managers Magazine, Apr 1990, p. 16-18.
7. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за январь-декабрь 2018 года. –Т.: 20– 333 с.
8. [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz) O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari.
9. [www.minenergy.uz](http://www.minenergy.uz) ochiq ma'lumotlar portali.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

